

YOSHLARDA MOTIV HAMDA MOTIVATSIYANING RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGIYANI O'RNI

Jo'rayev Panji O'tayevich

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani

MMTB qarashli 33-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir.

Kalit so'zlar: motiv, motivatsiya, ehtiyoj, o'quv motivlari, biologik ehtiyoj, ruhiy holat

KIRISH

S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, motiv bu ehtiyojning his qilinishi va qondirilishi. S.L.Rubinshteyn "Motivatsiya –bu psixika orqali amalga oshiruvchi determinatsiyadir. A.N.Leontev- motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqeylik deb hisoblaydi.

Motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab. Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvorini, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi. Motivatsiya-insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizmi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, idealarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Motivatsiya- murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayillar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya- odamlarni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir. V.S.Merlin motivlar tizmining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakillanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: "turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oqibatda motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi". V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakillanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash shartlar bajarilishini talab etadi. V.S.Merlin bo'yicha motivlari tizimlari o'zaro bog'liq va birbiriga tobe shaxs motivlarining bir butun

yig'indisidan iborat. Ammo V.S.Merlin garchi motivlar tizimlarining ayrimlarini haqiqatdan ham muhim jihatlarini ko'rsatib o'tgan bo'lsa ham, motivlar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni motivlar tizimlari va faoliyat ko'rsatish muammosini tadqiq etmagan.

Mashhur nems olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi.

R.S.Vaysman shaxs motivatsion sohasida tizimli munosabatlarni juda qiziq tasnifini keltiradi. Ammo ajratilgan munosabatlar qatorini boshqaruv, tartiblashtirilganlik va shu kabi munosabatlar bilan to'ldirish mumkin. Qolaversa R.S.Vaysman motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi asosiy munosabatni ajratmagan, bir turdagi va har xil turdagi motivatsion hodisalarni birbiridan farqlamagan.

Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida G.Olportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformasiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi. G.Olport o'z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g'oyalaridan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g'oyadan keng foydalangan. Olimning fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko'rsatadi va rivojlanadi, ya'ni funksional avtonomiyaga ega. Bir tizimga kiruvchi motivlarni G.Olport reaktiv, tashqi undovga muhtojlik qonunlariga bo'ysunuvchi motivlar, deb ataydi. Ammo G.Olportning ta'kidlashicha, shaxs ochiq tizimlar kabi o'zgaruvchi va rivojlanuvchi motivlar bilan tavsiflanadi, degan fikr haqiqatga yaqinroqdir. Agar avvalgi tizim motivlarning perseverativ funksional avtonomiyasi, deb atalgan bo'lsa, keyingi tizimni

G.Olport propriativ funksional avtonomiya, deb ataydi. Ochiq, yopiq va yarim ochiq tizimlar haqida to'xtalar ekan u yopiq tizim modelini shaxs va uning motivatsiyasiga qo'llab bo'lmasligini ta'kidlagandi. Ochiq funksional tizim taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi, uni esa undovchi muhtojlik doirasida tushuntirib bo'lmaydi. G.Olport tomonidan shaxs motivlarining ochiq tizimlar sifatida tahlil etilishi, shaxs va shaxs motivlari taraqqiyoti chegarasiz jarayon ekanligini ta'kidlash uchun imkoniyat beradi.

Ko'pchilik psixologlar fikricha, motivatsiya muammosi shaxs psixologiyasining markaziy muammosidir. Shaxs psixologik tuzilishining butunligi, xulq-atvor va uni

harakatga keltiruvchi kuchlar o'rtasidagi aloqadorlik motivatsiya muammosini o'rganishda tizimli yondashuvni qo'llash uchun keng imkoniyat yaratib yeradi.

Motiv – inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir. Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni, motivlar yig'indisi bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab – quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari “nima uchun?” “nimaga?” “qanday maqsad bilan?” kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlari o'quvchilar tomonidan tanlanib, uyar o'quvchining maqsadi, qiziqishi, kelajak rejalar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv motivlari turli yosh davrida turlicha bo'ladi.

O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalarfi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Ichki manbalar. Ular insonning tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug'ma axborot olishga bo'lgan ehtiyojdir. Orttirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi.

2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi.

Talablar ularning birinchisi bo'lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvorini bildiradi. Bog'cha, maktab, oila boladan juda ko'p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ijtimoiy kutish jamiyatning har birimizdan ma'lim bilimlar, ko'nikmalar darajasini bo'lishi zarurligini bildiradi. Masalan bir yoshli bola yurishi kerak, 7 yoshida u o'qishi kerak, 15 yoshida u kasb tanlashi kerak, deb hisoblaymiz.

Imkoniyatlar – shaxs faoliyatini belgilovchi obyektiv shart-sharoitlardir. Masalan, boy kutubxona bolani ko'p kitob o'qishga undaydi.

3. Shaxsiy manbalar: bu shaxsning qadriyatlar tizimi ustanovkalari g'oyalari. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatning kechishiga ta'sir etib, ta'lim jarayonining motivatsiyasini tashkil etadi

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytganda, motiv yashash uchun, o'qish uchun va biror bir rejani amalga oshirish uchun turtki yoki ehtiyojlar jamlanmasi. Biz motivatsiya tufayli reja qilib, ammo amalga oshirolmagan maqsadlarimizni amalga oshiramiz. Har bir shaxs uchun motivatsiya turlicha bo'ladi. Chunki har bir shaxsda qadriyatlar tizimi turlicha. Ularning qiziqishlari va ehtiyojlari turli xil bo'ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Z.T.NISHONOVA,N.G.KAMILOVA,D.U.ABDULLAYEVA,M.X.XOLN
AZ
AROVA Rivojlanish Psixologiyasi pedagogik psixologiya "O'zbekiston
faylasuflari milliy jamiyati" nashroyoti TOSHKENT 2018.
2. F.I.Xaydarov, N.I.Halilova "Umumiy psixiologiya" darslik TOSHKENT
2009.
3. Internet materiallari